



ONA TILI DARSLARIDA TEXNIK VOSITALARNING DOLZARBLIGI

Qanoatova Nazokat Sotvoldi qizi

University of economics and pedagogy

Filologiya kafedrası o'qituvchisi

Tel: +998 90 527-77-79

nazokatatm@gmail.com

Kamolova Shodmonoy Sherzodbek qizi

FTO' (rus) ta'lim yo'nalishi

2- bosqich talabasi

Telefon: +998336050509

kamolovasodmonoj@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada ona tili darslarida ko'rgazmali vositalardan unumli foydalanish usullari to'g'risida fikr yuritilgan. Dars turlarida, asosan, o'quvchilarning eshitish, ko'rish va esda saqlab qolish qobiliyatlariga ahamiyat berilgan.

Kalit so'zlar: elektron darsliklar, dasturlar va grafikli organayzerlar, elektron darsliklar.

O'quv jarayoni zamonaviy, yuqori darajadagi yutuqlarga suyangan holda darslar o'quv materillarini tez va oson o'zlashtirish imkonini berishi uchun darslarda texnik vositalar va sharoitlarni yaxshilash lozim. Agar kompyuter adabiyot faniga oid maxsus elektron darsliklar, dasturlar va grafikli organayzerlar bilan ta'minlansa, o'quv jarayoni yanada samarali kechadi, ta'lim sifati yanada yaxshilanadi. Adabiyot fani o'quv mashg'ulotlarini mazmunli tashkil etish va jonlantirishda ko'rgazmali axborot og'zaki axborotdan ko'ra ahamiyatliroq va unumliroq. Bundan tashqari ko'rgazmali axborot bir



vaqtning o'zida beriladi. Shuning uchun ko'rgazmali axborotni qabul qilish va eslashga og'zaki axborotdan ko'ra kam vaqt talab etiladi. Ko'rgazmali axborot ishlatilganda tassavur hosil bo'lishi og'zaki bayondan ko'ra, besh-olti marta tezroq kechadi.

Ona tili va adabiyot darsining barcha tur va shakllarida o'quv jarayoni, asosan, ko'rgazmali usullar asosida olib boriladi. Bu dars turlarida, asosan, o'quvchilarning eshitish, ko'rish va esda saqlab qolish qobiliyatlariga tayaniladi. O'quvchilarning eshitgan, ko'rgan va esda saqlaganlari asosida bexato javob berishlari dars samaradorligini belgilaydi. Ona tili va adabiyot fanini o'qitishdagi ko'rgazmali darslar boshqa tur darslariga qaraganda bir qator afzalliklarga ega. Bu turdagi darslar vaqtni tejash, o'qituvchi va o'quvchining kuchini saqlash hamda dars jarayonini samarali va jonli boshqarish imkonini beradi. Texnik vositalarning yaxshilanishi orqali o'quvchilarga internet orqali vazifalarini bajarish, ma'lumot to'plashda yordam beradi. O'quvchi va o'qituvchining kompyuter va internet savodxonligini oshirishda, o'z ustida tinimsiz va mustaqil ishlashga erishiladi. Bugungi fan yangiligi va mavzuga oid turli-tuman boy manbalarga erishish, manimcha, o'qituvchini yanada ishga shijoatini uyg'otadi. Adabiyot fani o'qitish jarayonini elektron darsliklar asosida video-tasvirli tashkil etish, o'quvchining ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyatini, fanga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi, o'quv materiallarini idrok qilish va puxta o'zlashtirishiga yordam beradi, Ona tili va adabiyot fani o'quv xonasi doimo ozoda va tartibli bo'lishi, ko'rgazmali vositalar o'z vaqtida yangilanishi va mavjud ko'rgazmali vositalarning mavzu va mazmuni adabiyot fanini o'qitish dasturiga to'g'ri kelishi kerak. Xonada kinoapparat(video-proyektor) va kinoekran bo'lishi dars uchun muhim. Shuning uchun har bir ta'lim muassasida ta'lim sifatini oshirishda va yaxshilashda, avvalo, texnik vositalarni har bir xonada tashkil etish muammosini bartaraf etish lozim. Mashg'ulotning mazmun va mohiyatini ochib berishda, yozuvchi va shoirlar hayoti va ijodi, yaratgan badiiy asarlari asosida yaratilgan elektron darslik materiallarini yoki video-tasvirlarni taqdim etishda, dars samaradorligini oshirishda, mashg'ulotlarning jonli o'tishida bularning ahamiyati juda katta. Bu esa o'quvchilarni faollashtiradi, ijodiy yondashtiradi, vaqtni



tejaydi, qiziqishini orttiradi, mustaqil fikrlashga undaydi, idrok qilish ko‘lamini kengaytiradi. Masalan, ona tilida birgina lug‘at boyligini oshirishda quyidagicha ishlash mumkin:

1. Rebuslardan foydalanishda o‘quvchilar mustaqil tovushni tahlil va sintez qiladi, yoki ilyustrativ rasm so‘z ma’nosini yaxshi tushunish, syujetli tasvir mashqi orqali narsa nomlarini topish, yoki tasvir orqali matn tuzish usullari ham bilim sifatini yaxshilaydi.

2. Etimologik ma’lumotnoma, ya’ni so‘z ma’nosining kelib chqish tarixi haqida ma’lumot beradi.

3. Yasama so‘zlar bilan ishlash. Asosga qo‘shimcha qo‘shilganda ro‘y beradigan tovush o‘zgarishlari.

4. Amaliy materiallardan foydalanish, ya’ni nutqda so‘zlarning vazifalarini kuzatishga yordam beradigan topishmoq, maqol va matallar, gaplar va matnlar bilan ishlash.

Elektron darsliklarning afzalligi shundaki, bir darsda bir necha usullardan samarali foydalaniladi va birinchi dars ikkinchisiga o‘xshamaydi. Har bir fanning o‘ziga xos senariysi, lug‘atlari, topishmoqli multimedialar, kinofilm, ko‘rgazmali axborot ta’minotiga ega bo‘ladi.

Yozma nutqida muayyan qiyinchiliklarga duch kelmaslik uchun turli xil usullardan samarali foydalanish mumkin. Masalan, aralash berilgan so‘zlar ichidan oxirgi tovush talaffuz qilinmasa ham yoziladigan so‘zlarni topish, bosh harfini tushirib qoldirish orqali yangi so‘z hosil bo‘ladigan so‘zlarni topish, oxirgi tovushni tushirish orqali yangi so‘z hosil bo‘ladigan so‘zlarni aniqlash usullari o‘quvchilarni topqirlikka va chaqqonlikka undaydi. Imlo savodxonligi bo‘yicha “x” va “h” tovushi bilan boshlanuvchi rasm-tasvirlar beriladi, o‘quvchilar uni daftariga yozadilar. So‘ng o‘quvchi xatolarini to‘gri variant bilan solishtiradi va bu jarayonda nimaga ahamiyat qaratishi kerakligini bilib oladilar. Yoki badiiy asarlardan (yoki kino filmlardan) ko‘chirma gapni olib, uni o‘zlashtirma gapga aylantirishda, mavzuning fanlararo bog‘lanishini kuzatishimiz mumkin. Adabiyot fanida esa, elektron darslikda aks etgan ijodkorning hayoti va faoliyati turli video tasvirlar orqali



namoyish etish, mumtoz lugʻatlar orqali gʻazal matni bimalol tahlil qilish, multimedialar, topishmoqlar va testlar orqali esa bilimlar yanada mustahkamlanadi.

Bugungi kun talabidan kelib chiqib adabiyot fani oʻqituvchilari barkamol ijodkor shaxsni tarbiyalashda zamonaviy pedagogik texnologiyadan, xususan, grafikli organayzerlar texnik vositalaridan bimalol, oʻzgarlar yordamisiz foydalana olishlari lozim. Buning uchun oʻqituvchilar maʼlum bir maʼnoda shu yoʻnalish boʻyicha bilim, koʻnikma va malakalarga ega boʻlishlari zarur. Har bir oʻquv xonasida kompyuter va kinoapparat(video-proyektor) boʻlishi va oʻqituvchi fani boʻyicha oʻz elektron darsligiga ega boʻlishini majburiyatga aylantirish lozim. Oʻquv jarayonida texnik vositalar va elektron darsliklar foydalanish oʻquvchilarni faollashtirishga, ularning barcha qobiliyat va imkoniyatlarini ishga solishga undaydi. Tashabbuskorligini oshirishga, jalb qilinadigan usullarni qoʻllash orqali savodxonlik darajasini yanada takomillashtirishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizxoʻjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent. 2016.
2. Abdullayeva Q., va boshqalar “Ona tili” T., “Oʻqituvchi ”2017 yil.
3. Boʻri Ziyamammedov, Mamarajab Tojiyev. Pedagogik texnoloya- zamonaviy oʻzbek milliy modeli. Toshkent. 2016.